

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

DUSANOVA TOZAGUL RASULOVNA

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA NASR VA
NAZM SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Dusanova Tozagul Rasulovna

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm sintezi 3

Dusanova Tozagul Rasulovna

Synthesis of prose and poetry in the work “Mahbub ul-qulub”
by Alisher Navoi 23

Дусанова Тозагул Расуловна

Синтез прозы и поэзии в произведении Алишера Навои
“Махбуб ул-кулуб” 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

DUSANOVA TOZAGUL RASULOVNA

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA NASR VA
NAZM SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.2.PhD/Fil 1739 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lism portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qobilov Usmon Uralovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Sultonmurod Olim
filologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat ___ :__ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11- 40; e-mail:rector) @samdu.uz. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 -yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023 -yil "___" _____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

H.P.Eshonqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi o'rinnbosari,
filologiya fanlari doktori, dotsent

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida turkiy xalqlar badiiy, adabiy – estetik tafakkur takomilida muhim o‘rin tutgan mutafakkirlarning nasriy va nazmiy asarlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘z davrining irfoniy va diniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan asarlarning ma’rifiy, tasavvufiy g‘oya va badiiy talqinlarini aniqlash, turkiy adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlarini mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘lab o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sharq adabiyotida mumtoz badiiy asarlarning shakliy xususiyatlari, tuzilishi, janri, vazni, qofiyalanishi, badiiy tasvir vositalari bilan bog‘liq she’riy unsurlarini yangicha adabiy yondashuv va tamoyillar asosida tadqiq etish dolzarb vazifa sanaladi.

Dunyo adabiyotshunosligida muhim o‘rin tutgan vazifalardan biri fasohat mulkining sultonni, buyuk shoir, olim Alisher Navoiyning ijodiy merosini, hayotiy mushohadalarini, nasriy asarlaridagi irfoniy, islomiy va ma’rifiy g‘oyalarni yangi talqinlar asosida yoritishdan iborat. Navoiyning so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub”dagi she’rlarning ilmiy tavsifini, vazn va janr xususiyatlari tahlilini, badiiy-g‘oyaviy tadqiqini amalga oshirish ehtiyoji mavjud. Shuningdek, Alisher Navoiyning nasr va nazm uyg‘unligida bitilgan asarlarini sharh va izohlar bilan nashrga tayyorlash, chop etish jahon ilm-fanida yangi sahifalar ochadi va dunyo adabiyotshunosligida bu boradagi ilmiy tadqiqotlar miqyosini yanada oshirish, “Mahbub ul-qulub” asarining badiiy-estetik tafakkur takomilidagi ahamiyatini ilmiy - nazariy jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda milliy istiqlol yillarda Alisher Navoiyning tasavvufiy ruhdagi asarlarini yangicha va xolisona ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini inobatga olgan holda “Yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”¹. Shu bois, o‘ziga xos an'anaga ega bo‘lgan Sharq mumtoz adabiyotining nodir asarlaridan biri Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan poetik, ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 19 октябрдаги ПК-4865-сонли «Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги карори // Халқ сўзи. – Тошкент, 2020, 20 октябрь.

to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida “Mahbub ul-qulub” asarining ba’zi xususiyatlariga doir ayrim tadqiqotlar yuzaga kelgan. Ular katta-katta kitoblardan tortib, kichik maqolalar shaklida. Jumladan, rus², fransuz³, turk⁴, ozarbayjon⁵ va o‘zbek⁶ adabiyotshunosligida amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda “Mahbub ul-qulub”

² Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965; Бертельс Е.Э. Навоий. – Т.: Тафаккур каноти, 2015; Конрад Н.И. Запад и Восток (статьи). – М.: Главная редакция Восточной литературы, 1972; Шу муаллиф. Ренессанс ва Навоий // Жаҳон адабиёти. – Т., 2006. Февраль. – Б. 126-130; Шу муаллиф. Алишер Навоий // Тафаккур. 1997. № 10. – Б. 38-41; Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в литературах Востока // Литература эпохи возрождения и проблема всемирной литературы. – М.: Наука, 1967;

³ Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d’extraits tirés des oeuvres du même auteur // Journal Asiatique. № 17. 1861. P. 175-256, – Б. 281-357;

⁴ Agah Sirri Levend .Turkye tupliklerinda Nevai aljazmaleri.Turk dili arastirmalari jillegi – Bulletin. Ankara, 1958.

⁵ Almaz Ulvi Binnatova. Alisher Navainin asri va nasri. Azarbayan, 2021. - В 416-426; Elisir Nevayi. Bes Risale. Tertib eden, cag`ataycadan uyg`unlashduran o’n so`zun, qeyd ve serhlerin muallifi. Prof. Dr.Ramiz Esker. Baku. 2021.

⁶ Саъдий А. Творчество Навои как высший этап узбекской классической литературы (Док.дисс.раб), – Т., 1945-1948;. Ойбек. Ўн учинчи том. Ўн тўққиз томлик. МАТ. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972; Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. G’afurjonova T. Alisher Navoiy ijodiysi va nasr problemalari // O‘zbek nasri tarixidan. – Toshkent: Fan, 1982. 36-59-betlar. G’aniyeva S. “Mahbub ul-qulub” // O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 томлик. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. 341-356-betlar; Valixo’jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. Valixo’jayev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Samarqand: Sam DU nashri, 2002. 116-127-betlar; Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O‘quv qo’llanma) –T.: Yangi asr, 2006. 431-438-betlar; Абдуллаев В. “Алишер Навоининг ҳаёти ва Самарқанддаги адабий фаолияти”. Филол.фан.номз. дисс. ... – Т., 1941; Рустамий А.“Адиблар одобидан адаблар.Тошкент “Маънавият” 2003; Мамадов X. “Навоий бадиий прозасининг лексик ва стилистик хусусиятлари”. Филол.фан.номз. дисс. ... – Т., 1969; Ҳайитметов А.“Алишер Навоининг адабий-танқидий қарашлари”. Филол.фан.номз. дисс. ... – Т., 1954; Ҳабибуллаев А.“Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг жанр хусусиятлари” Филол.фан.номз. дисс. ... – Т., 1986; Ҳайитов Ш.”Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг манбалари ва foявий-бадиий таҳлили” Филол.фан.номз. дисс. – Т., 1997; Hayitov Sh. “Mahbub ul-qulub”da tasavvuf jilolari. – Toshkent: Fan, 1996; Hayitov Sh. Barkamol inson orzusi. – Toshkent: Fan, 1996; Эргашев Қ. Навоий насида баён тарзи ва муаллиф образи. Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o’rni mavzusidagi III an’anaviy xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to’plam. 2019. – Б. 74.

asarining matni, janr xususiyatlari, manbalari, g‘oyaviy-badiiy tahlili va tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari tahlilga tortilgan.

“Mahbub ul-qulub” asarini adabiyotshunoslik yo‘nalishida A.Habibullayev⁷ va Sh.Hayitov⁸lar tadqiq etgan. Jumladan, Alimulla Habibullayevning tadqiqot ishida asarning janriy xususiyatlari yoritilgan, “Mahbub ul-qulub” pandnomma ruhida yozilgan boshqa asarlar bilan qiyoslangan va Navoiyning novatorligiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, Sh.Hayitov “Mahbub ul-qulub”dagi axloqiy mavzular talqinida ilohiyot va tasavvuf tayanch omil vazifasini ado etgani, Qur’oni karim va hadisi sharif “Mahbub ul-qulub” asarining yaratilishida muhim sarchashma ekanligini dalillagan.

“Mahbub ul-qulub” asari tadqiqiga bag‘ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she’riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etilgan. Biroq bu murojaatlar asosan misol keltirish shaklida namoyon bo‘lgan, asar tarkibidagi she’riy matnlar alohida o‘rganilmagan.

Ushbu zaruratdan kelib chiqib, Alisher Navoiyning ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan eng so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub”da keltirilgan she’riy matnlar poetikasi, nasr va nazm uyg‘unligidagi asarlarning tarixiy taraqqiyoti, tasavvufiy, irfoniy mazmun-mohiyati, she’riy matnlarning muhim xususiyatlarini ochib berish, janr, vazn va qofiya unsurlarini aniqlash, she’riy parchalarda aruz vaznining qo‘llanilishi bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar, badiiy matnlarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil etish va tadqiq qilish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyotini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamlangan “Mahbub ul-qulub” asaridagi nasriy va she’riy matnlarning o‘zaro mutanosibligi, she’riy matnlarning janr va badiiyat mezonlarini, vazn va qofiya masalalari, she’riy matnlarning nasr va nazm uyg‘unligi kesimida badiiy o‘ziga xosligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

forsiy va turkiy adabiyotda nasriy yo‘lda yozilgan axloqiy –didaktik asarlarda she’riy janrlardan foydalanish an’anasini oydinlashtirish;

Alisher Navoiyning nasr va nazm uyg‘unligida yozilgan asarlari, jumladan, “Mahbub ul-qulub” asarida she’riy matnlarning ahamiyatini dalillash;

Asar tarkibidagi she’riy matnlarni mavzu, mazmun-mundarija va g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishiga ko‘ra yoritish;

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi nazmiy matnlarni janr va vazn nuqtayi nazaridan tadqiq etish va shoir badiiy mahoratini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Mahbub ul - qulub” asari (2011-yil 9-jild) asos qilib olindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yondashuvi nuqtayi

⁷ Ҳабибуллаев А.“Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг жанр хусусиятлари” Филол.фн.номз. дисс. ... – Т., 1986;

⁸ Ҳайитов Ш. “Алишер Навоий “Махбуб ул-кулуб” асарининг манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили” Филол.фн.номз. дисс. ... – Т., 1997.

nazaridan fors-tojik va turkiy adabiyotning nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan mumtoz durdonalari - Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, S.Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” kabi asarlari hamda Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlariga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiyning nasr va nazm uyg‘unligida bitilgan asarlari, jumladan, “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi she’riy matnlarning janri, vazni, qofiya turlari, tanbeh va hikoyatlarning mavzusi, poetikasi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoritish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimlashtirish va induktiv usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

forsiy va turkiy adabiyotda nasriy yo‘lda yozilgan axloqiy – didaktik asarlarda she’riy janrlardan foydalanish an’anasining nasr va nazm uyg‘unligi asosida shakllanganligi, nasriy asarlarda kichik she’riy janrlarning muxtasar qilinishi aniqlangan;

“Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm sintezining irfoniy mezonlari, janr, mavzu, mazmun-mundarija ifodasi shoirning ijtimoiy, ilmiy-adabiy kabi ma’rifiy qarashlarida aks etganligi isbotlangan;

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida kamolotning irfoniy-tasavvufiy talqini, asarning axloqiy – didaktik ahamiyati yoshlar ma’naviy tarbiyasida komil inson konsepsiyasining birlamchi asosi ekanligi dalillangan;

nasriy va she’riy matnlarning adabiy tur, janr, vazn, qofiya unsurlari, lafziy va ma’naviy badiiy san’atlar, ishq, she’r va shuur, irfoniy fazilatlar maqomoti ifodasida g‘oyaviy-badiiy individuallikka egaligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilardan iborat:

forsiy va turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligi an’analaring rivojlanish jarayonlari, tarixiy taraqqiyoti haqida ilmiy – nazariy qarashlar shakllantirilgan;

turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan asarlar va Navoiyning shunday tuzilishdagi asarlarida she’riy matnlarning vazifasi, miqdori va joylashish o‘rni aniqlangan;

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi she’riy matnlarning janriy va vazn xususiyatlari, badiiyati, nasriy va nazmiy matnlarning o‘zaro mutanosibligi, she’rlarning miqdori, asardagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan;

Tadqiqot ishi materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar oliv ta’lim bakalavriat bosqichining “Filologiya va tillarni o‘qitish” yo‘nalishi o‘quv dasturlariga kiritilgan “Adabiyot”, “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish davri adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik” kabi fanlar yuzasidan yaratiladigan o‘quv adabiyotlarining “Alisher Navoiy she’riyati”, “Alisher Navoiyning nasriy merosi”ga oid bob va fasllarni to‘ldirish, takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalarning ilmiy-tahliliy va qiyosiy-tipologik metodlar bilan asoslangani, muammoning aniq qo‘yilgani, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyatga joriy

etilganligi, olingen natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishning natijalari va ilmiy xulosalaridan turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek adabiyoti tarixi yo‘nalishida yaratilajak ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish, mavzuga doir dissertatsiya va monografiyalar yaratishda ilmiy-nazari manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha tadqiqotlar yaratish, oliv ta’limda o‘qitiladigan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik”, “Adabiyot nazariyasi” fanlariga oid darslik, elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tuzish va takomillashtirishda, lug‘atlar tuzish jarayonida va ixtisoslik fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm sintezi bo‘yicha olingen ilmiy natijalar asosida:

forsiy va turkiy adabiyotda nasriy yo‘lda yozilgan axloqiy – didaktik asarlarda she’riy janrlardan foydalanish an’anasining nasr va nazm uyg‘unligi asosida shakllanganligi, nasriy asarlarda kichik she’riy janrlarning muxtasar qilinishi, til ifoda-tasvir vositalari hamda adabiy an’analar orqali olingen tajriba va amaliy tavsiyalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyiada foydalanildi. (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 20-maydag‘i 17.01/44-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada belgilangan vazifalar asosida shoir she’riyatidagi ilmiy-ma’rifiy g‘oyalarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini asoslashga xizmat qilgan;

“Mahbub ul-qulub” asarida nasr va nazm sintezining irfoniy mezonlari, janr, mavzu, mazmun-mundarija ifodasi shoirning ijtimoiy, ilmiy-adabiy kabi ma’rifiy qarashlarida aks etganligi ,qolaversa, qoraqalpoq - o‘zbek adabiy aloqalariga tajriba va amaliy tavsiyalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan FA-F1-GOO2 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 24-maydag‘i 17.01/45-son ma’lumotnomasi). Natijada, folklor va yozma adabiyotdagi ijodkorlar badiiy mahoratini belgilashda ularning lisoniy salohiyati parametrlarini hisobga olishga, badiiy-tasvir vositalari hamda adabiy an’analar orqali tajriba va badiiy mahoratni oshirish yo‘l-yo‘riqlari haqidagi nazariy fikr va amaliy tavsiyalar hamda Alisher Navoiy adabiy merosining matniy va g‘oyaviy-badiiy tadqiq etish bilan bog‘liq xulosa va umumlashmalarga asos bo‘lgan;

Alisher Navoiy ijodining badiiy qimmati, ma’rifiy ahamiyati, nasriy-she’riy asarlaridagi ma’rifiy-irfoniy, badiiy-estetik g‘oyalalar talqiniga oid ilmiy xulosalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasi “Diyor” teleradiokanalni “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot” eshittirishlarining ssenariysi

tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasi “Diyor-24” teleradiokanalining 2022-yil 8-fevraldagagi 04-25-885-son ma’lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”ida o‘z ifodasini topgan didaktik qarashlardan ma’nан yetuk avlodni tarbiyalashda foydalanishning ilmiy-pedagogik mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

asardagi axloqiy-didaktik, ma’rifiy-tarbiyaviy, badiiy –estetik g‘oyalar talqiniga oid fikr-mulohazalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Navoiy viloyati bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan “Yosh navoiyxonlar”, “Millat ko‘zgusi”, “Yosh kitobxon” kabi turli tanlovlarning ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan(O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Navoiy viloyati bo‘limi (2022-yil 24-iyundagi 47-son ma’lumotnomasi). Natijada, asarda berilgan tanbehlar va umuminsoniy g‘oyalar barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 4 ta xalqaro konferensiya va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning umumiyo mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy maqola, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 156 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning “Kirish” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriylanishi, e’lon qilinganligi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Mumtoz adabiyotda nasr va nazm sintezi an’analari va Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari**” deb nomlanib, uch faslga bo‘lingan.

Birinchi fasl “*Fors-tojik va turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligi an’analaring tadrijiy taraqqiyoti*” deb nomlanib, unda fors-tojik va turkiy adabiyotda nasriy yo‘lda yozilgan pandnoma asarlarda she’riy janrlardan foydalanish an’anasining tarixiy taraqqiyoti, fors-tojik va turkiy tilda axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diy Sheraziyning “Guliston”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asarlari haqidagi ilmiy kuzatishlar bayon qilinadi.

Sharq xalqlari adabiyoti an’ana va o‘ziga xoslik masalalarini qamrab olgan mushtarak adabiyot sifatida mazmuniy, uslubiy, g‘oyaviy-badiiy jihatdan komparativistik yondashuvni taqozo etadi. Aksariyat, turkiy ijodkorlarimiz ham forsiy, ham turkiy tilda asarlar yaratishgan. Bu xalqlar adabiyoti namoyandalari ijodi tasavvuf manbalarining ma’rifiy talqini va tatbiqiga bag‘ishlangani bilan

xarakterlanadi. Ma'rifat darg'alari Sharq mumtoz adabiyoti an'analari shakllanishining asosi sifatida har doim ma'rifatparvarlik adabiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari didaktik asarlarining asosini Qur'oni karim oyatlari, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyat va she'riy parchalar tashkil qiladi. Jumladan, "Qobusnama" asarining uchinchi bobi "Haq taoloning shukrguzarlig'i zikrida" deb nomlansa, to'rtinchi bobi "Ne'matlarg'a shukr qilmoq zikrida"dir. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarining uchinchi qismi 63-tanbehida Shukr va uzr boisi haqida to'xtalgan bo'lsa, 127-tanbehida Shukr, fikr va umid haqida o'z mulohazalarini bayon etadi⁹.

Tasavvufshunos olim N. Komilov¹⁰ tariqat maqomotlarini manbalar asosida sharhlab bergen. Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ayi sayyor" dostonidagi "Muqbil va Mudbir" hikoyati Sa'diyning "Guliston" asarida "Xurosonlik ikki darvesh" hikoyatidagi an'anaviy obrazlar ta'sirida novatorlik bilan sayqallangan. Navoiy bu sayyor syujetdan "Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismi oltinchi bobida "Tavozu" va adab zikrida"gi maqomatni dalillash uchun foydalangan¹¹. Shukr qilishga da'vat tasavvufiy-umuminsoniy adabiyotning nafsga qarshi kurashish konsepsiyalardan biri bo'lib, jumladan, Luqmon surasining 12-oyatida¹² ham shukr qilish hikmati ifodalangan. Muqaddas hadislarimizda ham Olloh bergen ne'matga shukr qilish odamiylik fazilatlaridan biri sifatida ta'kidlanadi¹³.

Fors-tojik va turkiy adabiyotda nasriy asarlarni nazmiy parchalar bilan bezash Sa'diy Sheraziy "Guliston" asari ta'sirida shakllanib, muayyan an'anaga aylandi. Asar pandnoma ruhida yozilib, har bir hikoya qissadan hissa shaklidagi she'riy pandlar bilan yakunlanadi. Turkiy adabiyotda hikoyatnavislik poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida nazmiy matnlar nasriy matnlar xulosasi yo tarkibida g'oyaviy-badiiy jihatdan takomillashtirish, yo oyat-u hadislar, masallardan iqtiboslar keltirilishi bilan shoirning ma'rifiy qarashlari, ijodiy mahorati ifodalanishi bilan xarakterlanadi (ta'kid bizniki – D.T.).

Alisher Navoiy ham Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari ta'sirida umrining oxirida "Mahbub ul-qulub" asarini yaratadi va Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheraziya ushbu asarida "Maoniy ahlining nuktapardozi" deb yuksak baho beradi. XX asr boshida yetishib chiqqan jadid ma'rifatchilarimiz bu kitoblardan ilhom olib, yangi darsliklar yaratdilar. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari shunday ruhda yaratilgan edi.

Fasl davomida Rabg'uziy turkiy badiiy nasrning ilk namunalaridan bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" asari bilan turkiy she'riyat rivojiga ham katta hissa qo'shgani

⁹ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Ж.9: Махбуб ул-қулуб.. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 546.

¹⁰ Комилов Н. "Тасаввуф ". Т.:"Movarounnah"- "O'zbekiston" . 2009 . – Б.28-29.

¹¹ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Ж.9: Махбуб ул-қулуб.. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 492.

¹² "Луқмон" сураси 12-oяти. (Биз Луқмонга: «Аллоҳга шукр қил. Ким шукр қилса, ўзи учун қиладир. Ким ношукрлик қилса, бас, албатта, Аллоҳ бехожат ва мақтalgан зотдир», деб ҳикматни бердик).

¹³ Мухаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар .Тошкент "Камалак" 1991. – Б 58.

va turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligida asar yaratish an’anasini boshlab bergani, asar badiiyati, she’riy matnlarning o‘mi va miqdori oydinlashtiriladi.

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligida yozilgan asarlar sirasiga Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”¹⁴ asarini ham kiritish mumkin. Sayfi Saroyi Sa’diy Shereroziyning “Guliston” asarini o‘zbek tiliga birinchi bo‘lib tarjima qilib, yarim original, falsafiy-axloqiy “Guliston bit-turkiy” asarini yaratgan. Adib Sa’diy asarining asosiy mag‘zini olib, uni zamona ruhi va mahalliy muhitni aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit’a va baytlar bilan to‘ldirgan.

Turkiy adabiyotda nasr va nazm uyg‘unligi an’analari Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya”, “Munshaot”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam” asarlari va Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”, Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Abulg‘izi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Ogahiyning “Shohid ul-iqbol”, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarlarida yanada rivojlandi. Xojaning “Miftoh ul-adl” asarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy masalalarga bag‘ishlangan ma’lumotlar ko‘p hollarda an’anaga ko‘ra Qur’on oyatlari yoki hadislardan iqtiboslanadi. Ularning sharhida adib axloqiy-didaktik mazmundagi hikoyatlar keltirib, o‘zining she’riy xulosasi bilan yakunlaydi. Xoja asar boblarida insoniyat ma’naviy taraqqiyotida barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni izohlab berishga harakat qilgan.

“Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm sintezining poetik takomili” deb nomlangan ikkinchi faslda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya”, “Munshaot”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam” asarlari bilan nasr va nazm sintezi an’anasini kamolot darajasiga yetkazganligi, Navoiy nasrida nasr va nazm ham g‘oyaviy, ham badiiy, ham uslubiy jihatdan uzviy bog‘liq holatda qo‘llanilishi, kichik she’riy janrlar nasriy bayonda ma’lum maqsadlarda fikrni dalillash va ta’kidlash uchun xizmat qilganligi, Navoiyning yuqorida sanab o‘tilgan asarlarida nazmiy parchalar nasriy bayonda ifodalangan fikrni xulosalash, yakunlash, badiiy ta’sirni yanada oshirish uchun qo‘llanganligi asoslanadi. Masalan, “Tarixi anbiyo va hukamo”da “As’hobi kahf” voqeasi genezisi Qur’oni karimning “Kahf” surasidagi 22¹⁵, 25¹⁶- oyatlar dalili bilan gavdalangan va ushbu ruboiy bilan yakunlanadi.

*Kahf ahlig ‘a yuzlandi adu qayg ‘usi,
Bo ‘ldilar agarchi g ‘orning mahbusi.*

¹⁴ Сайфи Саройи “Гулистони бит-туркий”. Тошкент F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1986.

¹⁵ “Ал-Каҳф” сурасининг 22-оятидан, яъни “Хали улар: «Учтадирлар, итлари тўртингилари»dir, дерлар. Ва: «Бештадирлар, итлари олтингилари»dir, деб гайбга тош отарлар. Ва: «Еттитадирлар, итлари саккизингилари»хам, дерлар. Сен: «Роббим уларнинг саноғини яхши билгувчи»dir. Уларни оз киши билур», дегин“

¹⁶ “Ал-Каҳф” сурасининг 25-оятидан, яъни “Ва қаҳфларида уч юз йил қолдилар ва тўққиз йил зиёда хам қолдилар. (Йигитлар қаҳфларида шамсий йил хисоби бўйича уч юз йил, қамарий йил хисоби бўйича уч юз тўққиз йил қолдилар. Чунки шамсий юз йил қамарий бир юз уч йилга тўғри келади, деган тафсирчиларимиз хам бор. Бу хулоса уларнинг ўз ижтиходалари»dir. Чунки Қуръони каримда хам, суннати набавияда хам бу хақда, яъни, шамсий ва қамарий йил хисоби ушбу оятда эътиборга олингани хақида аниқ маълумот йўқ. Шунинг учун оятда қелганини ўз ҳолича кабул килган маъкул.)”

وَلِتُّبْرُوا فِي كَهْفِهِمْ ثُلَّتْ مَانَةٌ سِنِينَ وَأَزَادُوا تِسْعًا

*Chun ko ‘zlari erdi uyquning mamlusi,
Ham oqibat etti adam ul uyqusi¹⁷.*

Navoiy voqeа xususida nasriy matnda Qur’он oyatlaridan iqtiboslar keltirib, ruboiyda esa “Kahf”, “Yunus” va “Maryam” suralarida keltirilgan bashariyatning dinsizlikka qarshi kurash g‘amini Daqyonus uqubati hamda yahudiy va nasroniy qavmi Iso xususida ixtilos qilganliklari haqidagi ma’lumotlar mohiyatini xalqona sodda tilda ifodalaydi.

Hazrat Navoiyning tarixiy-memuar ruhda yozilgan “Vaqfiya” asarida nasriy matnlar orasida jami 34 ta nazmiy matn keltirilib, ulardan 16 tasi ruboiy, 2 tasi masnaviy, 8 tasi nazm, 1 tasi bayt deb nomlangani, “Tarixi anbiyo va hukamo”dagi she’riy parchalar shoirning hayot tajribalari, donishmandlar hikmati asosida maydonga kelgan falsafiy-axloqiy mazmundagi hamda pand-nasihat xususiyatlariga molik masnaviy, bayt, ruboiy va qit’a, nazm va she’rlardan iboratligi va ularning ayrimlari bevosita Alisher Navoiy ijodiga mansub bo‘lsa, ayrimlari mashhur hikmatning Navoiy tomonidan nazmlantirilgan she’riy bayoni ekanligi bayon qilinadi. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida jami 160 misra nazmiy matn keltirilgan. Asarda keltirilgan 53 ta nazmiy matndan 19 tasi ruboiy, 1 tasi masnaviy, 2 tasi she’r deb nomlansa-da, qit’a kabi juft misralari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan, qolgan 29 tasi she’r, 1 tasi bayt va 1 tasi nazm deb nomlangan. “Tarixi muluki Ajam” asarida jami 51 ta nazmiy matn keltirilgan. Shulardan 2 tasi masnaviy, 49 tasi she’r deb berilgan. She’rlarning aksariyati 4 misralik, ayrimlar 2 misradan iborat. Shoirning nasriy asarlaridagi badiiy xulosasi bo‘lgan nazmiy matnlar muallif g‘oyaviy maqsadini yanada ta’sirchanroq, yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan. She’riy parchalarning ko‘pchiligi to‘rtlik shaklida bo‘lib, go‘zal badiiy san’atlar uyg‘unligida asarlarning o‘ziga xos jozibadorligini ta’minalash uchun xizmat qilgan. Ayniqsa, asarlarning g‘oyaviy mazmuni ulardagи she’riy parchalarda qofiya san’atlari va unsurlarining ishlatsihi natijasida yanada ta’sirchan ifodalangan.

“Munshaot” Navoiyning maktublar guldstasi bo‘lib, XV asr muloqot shaklining shohidlaridur. Asarda keltirilgan maktublar yuksak madaniyat bilan yozilib, masnaviy, ruboiy, qit’a, bayt deb sarlavhalangan 96 ta nazmiy matn bilan ziynatlangan. She’riy matnlar maktublar mazmunini to‘ldirish, ularning ma’no qirralarini ochib berish maqsadida keltirilgan. Maktublarning ba’zilarida shoirning hasbi holi, ba’zilarida kimgadir pand-nasihat yo boshqa mavzular qalamga olingan.

Alisher Navoiy nasrining gultoji, shubhasiz, “Mahbub ul-qulub” asaridir. Badiiy ijodga irfoniy tafakkur bilan yondashgan Hazrati Navoiy “Mahbub ul-qulub”ida nasriy va nazmiy matnlar orqali chin musulmonlik farzi va komil inson ma’naviyatini shakllantirish g‘oyasining ma’rifiy andozasini yaratgan. Donishmand shoir bu asaridagi she’riy matnlar bilan masnaviy, ruboiy, qit’a, fard janrining rivojiga ham beqiyos hissa qo‘shdi.

¹⁷ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. Ж.8: Тарихи анбиё ва хукамо.. – Т.:Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 594.

Alisher Navoiyning deyarli barcha nasriy asarlarida turli shakl va mazmundagi she'riyat namunalari o'z ifodasini topgan. Bu haqda akademik B.Valixo'jayev shunday yozadi: "Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" kabi nasriy asarlarida she'rning turli nav'laridan (masnaviy, ruboiy, qit'a, fard) foydalanilgan. Har bir nasriy asarda bahs yuritilayotgan mavzuga munosib va muvofiq ravishda ana shunday she'rlar keltirilgan. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riyati o'rganilayotgan vaqtida bu manbalardagilar ham nazarda tutilmog'i ma'qul"¹⁸.

Bunday she'rlar nasriy bayonni izohlash yoki kuchaytirish, shoir hasbi holini bayon etish, shoh vasfi, asar yozilish vaqtি-tarixini ifoda etish kabi mavzularga bag'ishlangan. Navoiyning nasriy asarlari tarkibida kelgan she'riy parchalar ijodkorning g'oyaviy maqsadini ro'yobga chiqarishga xizmat qilgan va mutafakkir nasr va nazm uyg'unligida yaratilgan asarlarni har tomonlama kamolot bosqichiga olib chiqdi.

"Mahbub ul-qulub"даги комиллик концепсијаси ifodasida nasr va nazm sintezining o'rni" deb nomlangan uchinchi faslda Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari hayotda ko'rgan-kuzatganlarini teran tahlildan o'tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan bebafo ibratnomasi ekanligi bayon qilinadi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ni barcha asarlari saodatining kaliti sifatida yaratar ekan, unda nasr va nazm sintezidan foydalanadi. Asarning uch qismidagi fasllar, boblar, tanbehlardagi nasriy va nazmiy matnlar orqali o'zining hayot haqidagi, o'zi yashagan jamiyatdagi mavjud tabaqalarning fe'l-atvori, jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari, o'z burchiga halol, to'g'ri munosabatda bo'lishi kerakligi, komillikka intilish, kamolot bosqichlari, qalban poklanish, tanni emas, ruhni boyitish, iymon, odamiylik to'g'risidagi mulohazalarini kelajak avlod uchun yozib qoldirdi. Asarning asosiy g'oyasi komillik sirlari, Qur'oni karimning umuminsoniy-umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiga, Rasululloh hadislariga amal qilish sunnati ma'rifikatiga undashdan iboratdir. Navoiy uchun tom ma'nodagi komil inson Muhammad alayhissalom va undan keyin naqshbandiya tariqatining uch buyuk siymosi – Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori Vali va Abdurahmon Jomiylar bo'lganligi yoritib o'tilgan. "O'zbek adabiyotida Muhammad alayhissalom xususida Alisher Navoiy kabi "ko'b" va "xo'b" yozgan shoir bo'lmasa kerak. Navoiyning hayotida naqshbandiya tariqatining uch buyuk siymosi – Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori Vali va Abdurahmon Jomiylar katta o'rin tutgan. Navoiy idealidagi komil insonlar birinchi navbatda xuddi shu uch buyuk avliyo edi"¹⁹.

"Mahbub ul-qulub" asari komil inson axloqi va uning tarbiyasiga oid muhim manba hisoblanadi. Asarning ikkinchi qismida bashariyat, jamiyat kamoloti uchun inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligi va insonni ma'naviy barkamol etadigan yaxshi fe'llar hamda uni tuban qiladigan yomon fe'llar kasofati haqida

¹⁸ Б.Валихўжаев Мумтоз сиймолар. А.Қодирий номидаги халқмероси нашриёти. Тошкент. 2002 . – Б 90.

¹⁹ Э.Очилов Навоий идеалидаги комил инсонлар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали 2001.5-сон.

ma'lumotlar berilgan. Komillikka erishish yo'llari tasavvufiy qarashlar tamoyilida ko'zdan kechiriladi. Bu birinchi va ikkinchi bo'limlarning ma'naviy jihatdan bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Navoiy – orif, irfoniy bilimlar sohibi hisoblanadi. "Mahbub ul –qulub" asari Alisher Navoiy irfoniy - tasavvufiy qarashlarining mevasi bo'lib, asarning ikkinchi qismidagi 10 ta bobda komillikka yetishishning 10 ta maqomotining asl mohiyati, ma'rifati to'la ochib berilgan. Navoiy ijodining o'zak masalalaridan hisoblanmish tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavozu' (xoksorlik) va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari hisoblanmish ushbu o'nta insoniy fazilatning asl mohiyati shayxlar va tarixiy shaxslar tasviridagi ibratli hikoyatlar bilan dalillangani yoritiladi.

Tadqiqotning "**Mahbub ul-qulub**"ning sintetik xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobi ikki faslga bo'lib tadqiq qilinadi. Bunda, asosan, asar matni, she'rlarning lirik chekinish sifatidagi o'rni, nazmiy matnlar miqdori e'tiborga olinadi. Bobning "*Ijtimoiy tabaqalar zikrida nasriy va nazmiy matnlarning o'zaro mutanosibligi*" deb nomlangan birinchi faslida "Mahbub ul-qulub" mutafakkirning nasriy asarlari sirasiga kiritilgan bo'lsa-da, Navoiy nazmiyotining ham betakror durdonalarini o'zida mujassam etganligi, shoir nasriy matnlardan so'ng masnaviy, ruboiy, qit'a, fard kabi kichik she'riy janrlardan asar mohiyati va ta'sirchanligini ochib berish maqsadida o'rinli foydalanganligi, asarning tuzilishi, yoritilgan mavzular mohiyati va donishmandning falsafiy qarashlariga asosan o'zaro bog'liq 3 qismdan tarkib topganligi haqida atroflicha mulohazalar yuritiladi.

Asarda nasriy va nazmiy matnlar o'zaro mutanosib bo'lib, she'riy parchalar goh yuqorida bildirilayotgan fikrni mantiqan davom ettirsa, goho o'sha fikrlarning muhim joylarini nazmda takrorlab, ta'kidlab keladi. Birinchi qismda 1-, 5-, 6-, 8-, 10-, 29-, 35- fasllar oxirida 1 tadan masnaviy, 6-, 7-, 12-, 14-, 19-, 24-, 31-fasllar oxirida 1 tadan qit'a, 9-, 13-, 16-, 20-, 39-, 40-fasllar oxirida 1 tadan ruboiy va 4-, 7-, 9-, 11-, 15-, 17-, 18-, 21-, 23-, 25-, 26-, 27-, 28-, 32-, 33-, 36- fasllar oxirida 1 tadan bayt deb nomlangan fardlar o'rin olgan. 30-faslda 4 misralik bayt deb nomlangan she'riy matn, 22-, 34-, 38-fasllardan so'ng nazm deb nomlangan 4 misralik she'riy matnlar keltirilgan.

Xullas, bu qismda o'z zamonasidagi 40 dan ortiq toifa vakillarining jamiyatdagi vazifasi, fe'l-atvori, ahvoli haqida fikr yuritiladi. Bularning ichida shohdan gadogacha bo'lgan tabaqa vakillarini uchratish mumkin. Navoiy ularning fazilatlari va kamchiliklarini goh tanqidiy, goh ijobiy, goh nafrat bilan tasvirlaydi va fikrlarini dalillash maqsadida har bir toifaga berilgan tavsifdan so'ng she'riy matn keltiradi. Birinchi qismda jami 40 ta nazmiy matn keltirilgan.

Demak, bu qismda bayon etilgan mulohazalar Alisher Navoiy hayotiy tajribalarining umumlashmasi bo'lib, ularda odamlarning ogohlilik va sabr bilan saboq olishi, vatan, xalq, jamiyatga xizmat qilish uchun komillikka erishishi, komil inson bo'lishi lozim ekanligi ta'kidlanadi. "Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismida o'n bitta hikoyatdan so'ng 1 ta masnaviy, 3 ta qit'a, 4 ta ruboiy, 14 ta fard

keltirilgan. Bu bobda asosan nasriy matnlardan so‘ng, ba’zi o‘rinlarda nasriy matnlar orasida 22 ta nazmiy matn keltirilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” (“Turli foydali o‘gitlar va masallar”) deb nomlangan uchinchi qismida Navoiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchiga murojaat qilib, 127 ta tanbehdha pand-nasihatlar orqali ma’naviy kamolot sirlarini bayon qiladi. Ushbu tanbehlarda buyuk mutafakkirning inson va uning sajiyasi, ilohiy ma’rifat bilan bog‘liq masalalar qalamga olingan. Nasriy matnlardagi har bir jumla o‘zaro qofiyadosh bo‘lib saj’da yozilishi unga alohida badiiy nafosat bag‘ishlagan. Asardagi 1-, 2-, 3-, 4-, 6-, 7-, 8-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 19-, 20-, 21-, 22-, 23-, 53-, 54-, 55-, 64-, 95-, 109-, 110-, 111-, 112-, 113-, 114-, 115-, 116-, 117-, 118- tanbehlar o‘zaro qofiyalangan nasriy jumlalardan iborat. Qolgan barcha tanbehlar nasr va nazm yo‘lida yozilgan va nasriy matnlardan so‘ng 95 ta nazmiy matn keltirilgan. Ayrim tanbehlar faqat nasriy matnlardan iborat bo‘lib, saj’ – qofiyali nasrda yozilgan va mansuralarga xos unsurlar bor. Xotimada esa 4 ta nazmiy matn keltirilgan.

Bobning 2-fasli “*Tanbeh va hikoyatlarda nazmiy matnlar poetikasi*” deb nomlanadi. “Mahbub ul-qulub”da Qur‘on va hadislardagi g‘oya nazmiy misralarda ma’no va mazmuni saqlangan holda ta’sirli va jarangdor bo‘lib xalq qalbiga kirib boradi. Asar tarkibidagi nazmiy matnlar nasriy matnlarga mos bo‘lib, ular o‘rtasida o‘zaro mantiqiy bog‘liqlik ham mavjud. She’riy parchalarda iqtibos qilingan oyat va hadislar ham asarning ruhiga mos ravishda tanlangan.

“Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismida nazmiy matnlarning joylashishi o‘zgacha, ya’ni she’riy matnlar nasriy matnlardan orasida uchraydi. Bu qismda dastlab tasavvufiy atamalarning sharhi, nazm, misol tariqasida keltirilgan hikoyat va uning xulosasidan so‘ng yana nazm keltirilgan. Birinchi she’riy matn o‘zidan oldingi tushunchaning xulosasi sifatida berilgan bo‘lsa, ikkinchi nazmiy matn hikoyatning yakuni bo‘lib xizmat qilganligi asoslanadi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining tuzilishini belgilovchi asosiy badiiy xususiyatlaridan biri nasr bilan nazmnning bирgalikda ishlatilganligidir. Donishmand adib nasriy matnlarda o‘zining hayot nazariyasini yaratgan bo‘lsa, nazm bilan o‘z fikrlarining xalqqa oson va tez yetib borishini ta’minladi.

Navoiyning bu asarida nazm asosan ikki maqsadda:

1. Nasriy bayonda bildirilgan fikrni xulosalash, yakunlash uchun;
2. Asardagi hikoyatlar kabi asarning badiyiligini ta’minlash, muallifning g‘oyaviy niyatini, ruhiy holatini yanada kuchaytirib, ta’sirchan ifodalash uchun keltirilgan.

Asar muqaddimasida jami oltita nazmiy matn mavjud (qit‘a, masnaviy, ruboiy, fard) bo‘lib, 14 bayt (28 misra)dan iborat. Birinchi qismda 8 ta ruboiy, 7 ta qit‘a, 9 ta masnaviy, 16 ta fard keltirilgan bo‘lib, 70 bayt (140) misra. Ikkinchi qismda 4ta ruboiy, 3ta qit‘a, 1ta masnaviy, 14ta fard keltirilgan - 30 bayt (60 misra). Uchinchi qismda 7 ta ruboiy, 18 ta qit‘a, 14 ta masnaviy, 56 ta fard – 135 bayt (270 misra). Xotimada 1 ta ruboiy, 2 ta fard, 1 ta ta’rix she’r keltirilgan – 6 bayt (12 misra)dan iborat bo‘lib, asarda jami: 255 bayt nazmiy matn keltirilgan.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi she’rlarning janri va hajmini jadval asosida quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

№	Janrlar	Muqaddima	1 q	2 q	3 q	Xotima	Umumiy soni	Bayt
1.	Masnaviy	2	9	1	14		26	60
2.	Ruboiy	1	8	4	7	1	21	42
3.	Qit'a	2	7	3	18		30	62
4.	Fard	1	16	14	56	2	89	89
5.	Ta'rix					1	1	2
Jami		6	40	22	95	4	167	255

Asardagi turli janrlarda yozilgan she'rlarning umumiy soni 167 ta bo'lib, 510 misrani tashkil etadi.

Navoiyni anglash uchun Tasavvuf va Qur'on oyatlaridan, islomdan xabardor bo'lishlik zaruriy ehtiyojimizga aylanib bormoqda, chunki Navoiy botiniy latif ruh orqali Farididdun Attor, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy kabi ilohiy ruh sohiblariga bog'langan. Naqshbandiya sulukining yetuk ulamolaridan biri, olim va shoir Abdurahmon Jomiydan ilohiyot, tasavvuf ta'limoti va tarixi, badiiy ijodning nazariy masalalaridan saboq olgan va maslakdosh bo'lgan. Hali 5-6 yoshligidanoq Qur'onne mutolaa qilganligi "Majolis un-nafois" asarining ikkinchi majlisida berilgan va Sharafuddin Ali Yazdiy bilan suhbat ma'lumotlar bayonida aytib o'tilgan. Ham nasrda, ham nazmda birdek yuksak saviyali asarlar yarata olish har kimga ham nasib etavermaydi. Alisher Navoiy dahosi buyukligining yana bir jihat shundaki, bu pokiza ruh sohibiga har ikkala shaklda ham tengsiz asarlar yarata olish iste'dodi Ollohnning buyuk in'omi edi.

Xalq og'zaki ijodidan ta'sirlangan Navoiy "Mahbub ul-qulub"ida bu ijod namunalaridan, ayniqsa, xalq maqollaridan keng foydalandi, ularning mazmunini she'riy parchalarga singdirdi va o'zi ham xalq maqollariga monand ko'pgina fardlar yaratdi, ularning ko'pchiligi hozir maqolga aylanib ketgan.

Dissertatsiyaning "**Mahbub ul-qulub**"dagi she'riy matnlar poetikasi" deb nomlangan uchinchi bobning "She'riy parchalarning janriy xususiyatlari" nomli birinchi faslida "Mahbub ul-qulub"ning uch qismida jami 21 ta ruboiy, 30 ta qit'a, 26 ta masnaviy, 89 ta fard, 1ta ta'rix - she'r - besh xil janrdagi lirik asarlar kiritilganiga urg'u beriladi. Ruboiy, masnaviy, qit'a, fard va ta'rix she'rlarning janriy xususiyatlari, asarda joylashish o'rni, badiiyati tahlil qilingan.

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi barcha janrlar axloqiy-didaktik va ma'rifiy ahamiyatga ega. Birinchi qismning o'n to'rtinchi fasli mudarrislar zikrida bo'lib: "Mudarrisning kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni ayturg'a murtakib bo'lmasa va xudnamolig' uchun dars havzasin tuzmasa va xudsitonlig' uchun takallum va g'avg'o ko'rguzmasa", - deya ta'kidlanadi hamda quyidagi qit'a xulosa sifatida keltiriladi:

*Har ne aytur bo 'lsa Xudovu Rasuldin
Andin so 'ng o 'lsa mujtahidu avliyo so 'zi.*

*Andin kishi ne kim eshitur va yoki o'rganur
Bo'lsa Xudo so'zi, yo'q esa, Mustafo so'zi*²⁰.

Ushbu qit'a mav'iza xarakterga ega bo'lib, hamd va na't mavzulari ifodalangani bilan juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Uning sharhida Ollohnning ismlaridan biri bo'lmish Ilm mudarrislarning asosiy fazilati va vazifasi ekan, ikki olam bilimi avvalo Olloh va uning Rasulidandir. Navoiy butun olam ilmlari Ollohnning sir-u asrorlarining ro'yobi uchun xizmat qilishiga ishora qilgan. Ikki olam sarvari Payg'ambar (s.a.v.) nuri javhari nurimuhammadiyaning badiiy talqiniga ham Ollohnning suyukli nabiysi Mustafo nomining e'tirofi bilan urg'u berilgan. Undan keyin esa anbiyolar ilmiga merosxo'r mujtahid-u avliyolar keltirilib, solik martabalari tasnif etilmoqda hamda kishining eshitgani, ko'rgani, o'rgangani, amali Olloh ilmi va Mustafo ma'rifati, sunnati ekanligi yuksak badiiyat bilan ta'kidlanmoqda.

